



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 6 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 8, НОМЕР 6

LOOK TO THE PAST
VOLUME 8, ISSUE 6



ТОШКЕНТ-2025

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори, доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент ирригация ва кишлок
хужалигини механизациялаш
муҳандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор
Қариш давлат университети

Маҳкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафасева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори, профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори, профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Сайнова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори, в.б.профессор,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий
педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Nilufar Djurayeva SOVET HOKIMIYATINING IJTIMOYIY - IQTISODIY SIYOSATIDA XOTIN-QIZLAR TASHKILOTLARINING MAQSAD-VAZIFALARI.....	5
2. Guldonga Taniyeva O'ZBEKISTON ZIYORAT TURIZMIDAGI O'ZIGA XOSLIK: O'TMISH VA BUGUN.....	15
3. Hikmatjon Avezov O'ZBEKISTONNING MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO'STLIGI BILAN ATROF-MUHIT HIMOYASI SOHASIDAGI HAMKORLIK TARIXI.....	20
4. Iskandar Samadov XORAZM XALQ SOVET RESPUBLIKASI (XXSR)DA YER-SUV MASALASI VA PAXTACHILIKNING QAYTA TIKLANISHI.....	27
5. Фируза Абдюсупова В ПОИСКАХ НЕИЗВЕДАННОГО: РУССКИЕ ЭКСПЕДИЦИИ И РАЗВЕДЫВАТЕЛЬНЫЕ ПОХОДЫ В ПАМИРЕ (XIX BEK).....	34
6. Nasiba Narzullayeva SOVET DAVLATI SIYOSATIDA XORIJDA TA'LIM OLGAN O'ZBEK XOTIN- QIZLARINING QATAG'ON QILINISHI.....	41
7. Istora Jo'rayeva XOTIN-QIZLAR MAVZUSINING YORITILISHIDA AYRIM MULOHAZALAR.....	50
8. Muslima Makhmudovna Bazarova THE ACTIVITY OF SHELTERS IN UZBEKISTAN.....	55
9. Diyora Chorshanbiyeva YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLAR SIYOSATINING SHAKLLANISHI.....	60
10. G'unchaxon Baxodirovna Alimova O'ZBEKISTONDA DINIY TA'LIM OLIISH SOHASI YO'NALISHLARI VA UNING S IFATINI OSHIRISHGA QARATILGAN ISLOHOTLAR.....	65
11. Mohira Matnazarova KO'CHMANCHI CHORVADORLAR HAYOTINING YOZMA MANBALARDAGI INTERPRETATSIYASI.....	71
12. Iroda Tishabayeva 1950–1970 YILLARDA O'ZBEKISTON MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA BOLALAR OVQATLANISHINI TASHKIL ETISH MASALALARI.....	76



Nasiba Ibragim qizi Narzullayeva,
O‘ZMU, tayanch doktorant

SOVET DAVLATI SIYOSATIDA XORIJDA TA’LIM OLGAN O‘ZBEK XOTIN- QIZLARINING QATAG’ON QILINISHI

For citation: Nasiba I. Narzullaeva. REPRESSION OF UZBEK WOMEN EDUCATED ABROAD IN THE POLITICS OF THE SOVIET STATE. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 6, pp.41-49

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15806078>

ANNOTATASIYA

Ushbu maqola XX asrning 20 – 30-yillarida O‘zbekiston SSRda yetishib chiqqan ziyoli ayollar – Maryam Sultonmurodova, Xayriniso Majidxonova, Matluba Muhammedova haqida bo‘lib, maqolada Maryam Sultonmurodova, Xayriniso Majidxonovalarning hayoti, Germaniyaga o‘qishga yuborilishi hamda ayanchli hayoti (qatag‘on siyosati) yoritilgan. Matluba Muhammedovaning jasorati, o‘tkir qalami natijasida Sovet davlati undan hayiqishi, qatag‘on siyosati o‘z girdobiga tortishi kabi tarixiy ma’lumotlar maqolada aks etgan. Maqolada millati uchun jonini ham ayamagan, tuhmat girdobida birini otgan, birini uzoq yillar surgunda saqlab, surgundan so‘ng ham o‘zini qayta yaratishga yo‘l qo‘yilmagan ayollar qismati batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Turkiston, Maryam Sultonmurodova, Xayriniso Majidxonova, Matluba Muhammad, ziyoli, qatag‘on siyosati, surgun, maktub, ziyoli ayol, bag‘rikenglik.

Nasiba I. Narzullayeva,
National University of Uzbekistan, doctoral student

REPRESSION OF UZBEK WOMEN EDUCATED ABROAD IN THE POLITICS OF THE SOVIET STATE

ABSTRACT

This article is about the educated women who emerged in Turkestan during the 1920s–1930s – Maryam Sultonmurodova, Khayriniso Majidkhanova, and Matluba Muhammadova. The article covers the lives of Maryam Sultonmurodova and Khayriniso Majidkhanova, their dispatch to Germany for education, and their tragic fate (the repressive policies). It also highlights historical information such as Matluba Muhammadova’s bravery, her sharp writing skills that caused the Soviet government to fear her, and how she too was caught in the whirlpool of repression. The article thoroughly explores the fate of women who sacrificed their lives for their nation, some of whom were executed under false accusations, while others were exiled for long years and, even after exile, were not allowed to rebuild their lives.

Index Terms: Turkestan, Maryam Sultonmurodova, Khayriniso Majidkhanova, Matluba Muhammad, intellectual, repressive policy, exile, letter, educated woman, tolerance.

Насиба Ибрагим кизи Нарзуллаева
Национальный университет Узбекистана,
докторант

РЕПРЕССИИ ЖЕНЩИН УЗБЕКИСТАНА, ПОЛУЧАВШИХ ОБРАЗОВАНИЕ ЗА ГРАНИЦЕЙ, В РАМКАХ ПОЛИТИКИ СОВЕТСКОГО ГОСУДАРСТВА

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена женщинам из интеллигенции, появившимся в Туркестане в 1920–1930-х годах – Марьям Султанмурadowой, Хайринисо Маджидхановой и Матлубе Мухаммедовой. В статье освещаются жизнь Марьям Султанмурadowой и Хайринисо Маджидхановой, их отправка на учёбу в Германию, а также трагическая судьба (политика репрессий) этих женщин. Также приводятся исторические сведения о мужестве Матлубы Мухаммедовой, о её остром пере, которое вызвало страх у советской власти, и о том, как её также втянули в водоворот репрессий. В статье подробно описаны судьбы женщин, которые не жалели своей жизни ради нации, были оболганы, кто-то из них был расстрелян, кто-то провёл долгие годы в ссылке и даже после ссылки им не дали возможности начать жизнь заново.

Ключевые слова: Туркестан, Марьям Султанмурadowа, Хайринисо Маджидханова, Матлуба Мухаммедова, интеллигенция, политика репрессий, ссылка, письмо, женщина-интеллигент, толерантность.

Dolzarbligi:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2023-yil 22-dekabr kuni o‘tkazilgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida “Buyuk ma’rifatparvar bobolarimiz tomonidan olg‘a surilgan g‘oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-ma’rifiy va huquqiy-axloqiy qarashlar, turli millat va elatlar o‘rtasida bag‘rikenglik va hamjihatlik tamoyillarini qaror toptirish bilan birga, milliy manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan intilishlar hozirgi murakkab va tahlikali zamonda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat namunasi” [1]. Darhaqiqat, jadid ma’rifatparvar bobolarimizning va ziyoli xotin-qizlarimizning Vatan taraqqiyoti, millat ravnaqi yo‘lidagi sa’y-harakatlarini yanada keng tadqiq etish, ma’rifatparvarlik harakatining holati va istiqbollari har tomonlama o‘rganish muhim ahamiyatga kasb etadi.

XIX asr oxirlari – XX asr boshlari Turkiston hayotida alg‘ov-dalg‘ovli davr hisoblanadi. Mamlakatda siyosiy bosim kuchaygan, ma’rifatparlik harakatlari uchqunlari ko‘zga ko‘rinar-ko‘rinmas bo‘g‘ilayotgan bir davr edi. O‘rta Osiyo Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingach, bu yerlarda chorizm o‘zining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma’rifiy sohalarda mustamlakachilik siyosatini boshlab yubordi. O‘lkani ruslashtirish, rus-tuzem maktablari va gimnaziyalarni ochish bilan birga milliy maktab, maorif va madaniyat ishlarining rivojlanishiga, mahalliy ziyolilarning yuqori malakali milliy kadrlarni yetishtirish borasidagi sa’y-harakatlarga qattiq qarshilik ko‘rsata boshladi. Chorizmning maorif va madaniyat sohasidagi mustamlakachilik siyosatini o‘z vaqtida anglay boshlagan taraqqiyparvar ziyolilar o‘lkada yangi usul maktablarini ochish, maorifni jonlantirish, milliy matbuot va teatr ishlarini tashkil qilishga katta e’tibor berdilar. Ayni paytda malakali milliy kadrlarni tayyorlash rejasini tuzib, Buxorodagi “Ma’rifat”, Toshkentdagi “Ko‘mak” kabi xayriya jamiyatlari orqali iste’dodli yoshlarni ichki Rossiyaning Peterburg, Saratov, Qozon, Ufa, Orenburg shaharlaridagi oliy maktab va madrasalar bilan birga Istanbul, Qohira kabi xorijiy shaharlardagi dorifununlarga o‘qishga yubordilar. Keyinchalik shunday talabalar orasidan Fitrat, G‘ozi Olim Yunusov, Xolid Said, Eson Afandi Musayev kabi yozuvchi va olimlar, Mustafu Cho‘qayev, Ubaydulla Xo‘jayev, Norbo‘tabekov kabi huquqshunoslar yetishib chiqdi. Ular yurtimizning yangi maorifi, madaniyati, ilm-fanini rivojlantirish va milliy istiqbolga erishishi yo‘lida faoliyat olib bordilar. Shunday kishilarning sa’y-harakatlari bilan 1919-yil oktyabrda Qo‘qonda, garchand qisqa umr ko‘rgan bo‘lsada, Turkiston Muxtoriyat hukumati barpo etildi. 1917-yil Rossiyadagi oktyabr to‘ntarishidan so‘ng hokimiyat

tepasiga kelgan bolsheviklar Turkistonda g'alaba qilgan bu milliy demokratik davlatni ag'darib, mustamlakachilik siyosatiga asoslangan sovet tuzumini o'rnatdilar. Turkiston respublikasining Turor Risqulov, keyinchalik Fayzulla Xo'jayev singari rahbarlari, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo'jayev, Fitrat singari maorif va madaniyat fidoyilari bu "qizil" mustamlakachilikdan qutulish yo'llarini izlay boshladilar. Buning uchun ular, birinchi navbatda, o'lkani feodal-xonlik va amirlik, shuningdek, chor mustamlakachiligi davrida chuqurlashgan iqtisodiy va madaniy qoloqlikdan qutqazish, taraqqiy etgan mamlakatlarning bu sohalaridagi tajribalarini o'rganish va shu orqali vatanlarini sekin-asta mustaqillikka olib chiqish rejasini tuzdilar. Ular, birinchi navbatda, o'sha davrda G'arbiy Yevropada eng taraqqiy etgan mamlakat – Germaniya erishgan yutuq va tajribalarni o'rganishni zarur, deb hisobladilar [2]. Buning uchun avvalo mahalliy yoshlarni Germaniyaga, shuningdek, Sharq va G'arbdagi boshqa ilg'or mamlakatlarga yuborish, ular yordamida bu mamlakatlarda erishilgan ilmiy-texnik yutuq va tajribalar bilan tanishish, shu asosda o'lkani iqtisodiy va madaniy qoloqlikdan qutqazish mumkin edi. Bu favqulodda muqim va murakkab loyihani amalga oshirish uchun esa, birinchidan, mablag' topish, ikkinchidan, iste'dodli yosh yigit va qizlarni tanlash, uchinchidan, bu yigit va qizlarning ota-onalaridan ruxsat olish lozim edi. Turkistondan turli yo'llar (hukumat tarafidan, "Ko'mak" uyushmasi yordamida yoki xususiy yo'llar) bilan xorijga talabalar yuborish harakatlari boshlandi. 1921-yil 23-aprelda Toshkentda o'tkazilgan O'zbek ilmiy komissiyasi majlisida o'zbeklardan xorijga talabalar yuborish masalasi muhokama qilindi. Unda komissiya a'zosi A.Yunusovning ma'ruzasi tinglandi. A.Yunusov bu xususda to'xtalib, shunday dedi: "Har qanday mamlakatning istiqboli ko'p hollarda uning manfaatiga xizmat qilishga yetarli darajada tayyor bo'lgan yuqori ma'lumotli faollarga bog'liqdir. Shuning uchun biz, masalan, Yaponiyaning G'arbiy Ovrupo mamlakatlariga yuborib, o'z olimlari, muhandislari, vrachlari va boshqalarga ega bo'lganligini ko'ramiz. Turkiston Respublikasi kelgusida, haqiqatan ham, o'z milliy avtonomiyasi taraqqiyotiga erishmoqchi bo'lsa, unda yaqin kelajakda o'zining tub aholisi ichidan o'z oldida turgan katta vazifalarni hal qilish imkoniyatiga ega bo'lgan, yuqori darajadagi zamonaviy ilmlar bilan qurollangan faollariga ega bo'lishi kerak".

Xorijga talabalar yuborish vazifasi keyinroq Buxoro Xalq Sovet Respublikasi rahbarlari Fayzulla Xo'jayev, maorif noziri Fitrat tomonidan kengroq qo'yila boshlandi. Ular hatto bu borada Turkiston Avtonom Sovet Respublikasiga ham yordam ko'rsata boshlaydilar. Shunday qilib, Turkiston va Buxorodan 1922-yil oxirlarida 70 ga yaqin turli yoshdagi mahalliy yosh yigit va qizlar Germaniyaning turli shaharlaridagi oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlariga qishloq xo'jaligi, tekstil sanoati, kimyo, elektrotexnika, konchilik, falsafa, pedagogika, tibbiyot va boshqa muhim sohalar bo'yicha o'qishga yuboriladi.

Bular ichida shu davrda Saydali Xo'jayev, Sattor Jabbor, Ahmad Shukriy, Ahmadjon Ibrohimov, Xayriniso Majidxonova, Maryam Sultonmurodova[3] va boshqalar bor edilar. Ammo ularni ayanchli taqdir kutib turardi.

Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Maqolada umumqabul qilingan metodlar – ilmiylik, xolislik, tarixiylik kabi usullardan foydalangan holda, Sh.Turdiyev, B.Irzayev Q.Yo'ldoshev asarlari va adabiyotalari asosida XX asrning 20 – 30-yillarida O'zbekistonda milliy ziyolilar qatlamining shakllanishida ayollarning tutgan o'rni, ularning faoliyati, qatag'on siyosatiga uchrashi ilmiy o'rganildi.

Tadqiqot natijalari:

XX asrning 30-yillarida Sovet hukumati mamlakatdagi ziyolilarga qarshi qatag'on siyosatini uyushtirib, ko'plab aql egalarini jismonan mahv etdi. 1937 – 1938 yillardagi "Katta qirg'in" vaqtida o'zbekistonlik ko'plab begunoh kishilar, davlat va jamoat, fan va madaniyat arboblarni qamoqqa olindi. Bundan tashqari qo'lga olinganlarning oila a'zolari hech qanday dalil-isbotsiz panjara ortiga tashlandi. Afsuski bular orasida xorijda tahsil olib kelgan xotin-qizlar ham bor edi.

Sobiq tuzum davrida o'zining vatanparvarligi, bilimi, faolligi, intiluvchanligi va tashabuskorligi bilan ajralib turgan va bu yo'lda mash'um tuzumning qatag'onlik siyosati girdobiga tortilgan Maryam Sultonmurodovani ham ana shunday xotin-qizlarimiz qatoriga qo'shishimiz mumkin. Sultonmurodova Maryam Jumaniyozovna 1905-yil 13-fevralda Xiva shahrida tug'ilgan. Maryam Sultonmurodova 1922 – 1923-yillarda Berlin universiteti qoshidagi olti oylik tayyorlov

kursida o‘qiydi. 1924-yil Darmshtadt shahridagi “Viktoriya” o‘qituvchilar seminariyasiga imtihon topshiradi. Xorij ta’limi Maryamxonga oson kechmadi. Germaniyada tahsil olgan Sattor Jabborning Erttoy nomi bilan “Turkiston” gazetasining 1924-yil 2-sentabr sonida e’lon qilingan maqolasida bu to‘g‘ri shunday yoziladi: “...Xivalik Maryamxon moddiy tomondan yaxshi ta’min qilinmagani uchun yo‘llarida ko‘p chatoqliklar ko‘radir. Chindan hayot xotini bo‘lmoq va Turkistonda qolg‘on opa-singillarimizning istiqboli uchun hech kim ko‘rsatmas qahramonlik qilib kelgan qimmatlik qizimizga Xorazm jumhuriyatimizning shunday sovuqqonlik bilan qarashig‘a Turkiston yoshlari taassuf etolmay turolmaydurlar” [4]. “...O‘zbek jadid ayoli Maryam Sultonmurodovadan bolsheviklar nihoyatda hayiqar edi”[5]. Jadid bobolarimiz safida turib yurt va millat ravnaqi yo‘lida kurashgan o‘zbek xotin-qizlarining zamondoshlaridan ustun jihatlari, fazilatlarini qaysi voqealarda ko‘zga tashlanadi? Maryamxonning “aybi” nima edi? Ajdodlarimiz onalarga millat egasi sifatida qarashgan. Axir buyuk insonlarni ilm-ma’rifati yuksak onalar yetishtiradi. Millatimizda katta olim, shoira va faqih ayollar ko‘p bo‘lgan. Jadid ayollar mavzusi esa alohida tadqiqotlarni talab qiladi. Eng avvalo, jadid bobolarimiz o‘sha zamon kishilari ongida xotin-qizlarga bo‘lgan alohida hurmat va ehtirom tuyg‘usini uyg‘ota bilgan. Ular millat farzandlarini “qo‘li to‘qmoq, boshi pahmoq” ezilgan ayollar tarbiyalashini istamagan. Maryam Sultonmurodova xorazmlik haqg‘oy va taraqqiyparvar inson Jumaniyoz Sultonmurodovning qizi bo‘lgan. Jumaniyoz Sultonmurodov harbiy tribunal rahbari, Xorazm Xalq Respublikasi Xalq komissarlari Kengashi raisi, Xorazm kompartiyasi kotibi lavozimlarida ishlagan. Maryam Sultonmurodova 1919-yilda Toshkentdagi maorif maktab gimnaziyasini tamomlagach, oliy ma’lumot olish maqsadida 1920 – 1921-yillarda Orenburg tatar pedagogika institutida o‘qigan. 1921-yil yozgi ta’ilda Xorazmga kelgach, Xorazm kompartiyasi Markaziy Kengashida avval adabiy bo‘limga, so‘ng ayollar bo‘limiga rahbarlikka tayinlanadi. Biroq og‘ir tarixiy sharoit va qiyinchiliklar unga ko‘nglidagidek ishlash imkonini bermaydi. Natijada, 1922-yil iyulda Toshkentga kelib, O‘rta Osiyo davlat universitetining ishchi fakultetiga hujjat topshiradi. 1922-yil oktyabrida Maryam Sultonmurodova Buxoro hukumati tomonidan Germaniyaga o‘qish uchun yuborilayotgan talabalar safiga kiritiladi. U 1924 – 1926-yillar Darmshtadt oliy seminariyasida ta’lim oladi. 1926 – 1927-yillarda esa Berlin yaqinida Potsdam shahridagi “Fraunshulle” maktabida amaliyot o‘tadi. 1927-yil yozgi ta’til vaqtida Xayriniso Majidxonova bilan birga 29-iyuldan 18-avgustgacha Parij shahrida bo‘ladi. Ularning Parij opera teatri oshxonasida Ahmad Naim va Mustaf Cho‘qaylar bilan 2-3 daqiqalik uchrashuvi keyinchalik qatag‘on etilishi uchun asosiy bahona bo‘lgandi [6]. 1927-yil kuzidan Maryam Berlin shahrining Vedding tumanidagi professor Finkelshteynning olti oylik hamshiralik kursini bitirib, 1928-yil SSSRga qaytgan. Maryam Sultonmurodova Vatanga kelishi bilan so‘roq, ta’qiblar boshlanib ketdi. Avvaliga hech joydan ish berishmadi. Faqat 1929-yil fevral oyida Germaniyada ta’lim olgan Badri Sayfulmulk yordamida O‘zbekiston Sog‘liqni saqlash komissarligiga qarashli bolalik va onalikni asrash institutiga hamshira bo‘lib ishga kiradi. Maryam 1929-yilning oxirlarida Asqar Ahmadbekov bilan oila qurib, 1933-yilgacha Kattaqo‘rg‘onda yashagan. Eri qamoqqa olingach, 1933-yil Toshkentga qaytib, O‘rta Osiyo davlat universitetiga ishga kirdi. Biroq, 1934-yil yana ishsiz qoldi. So‘ng “Guliston” jurnaliga, 1936-yildan ayollarning “Yorqin turmush” jurnaliga adabiy xodim bo‘lib ishga kirdi. Maryam o‘zbek matbuotida o‘zining olmon adabiyotidan qilgan tarjimalari va ayollarning o‘tkir ijtimoiy muammolariga bag‘ishlangan maqolalari bilan elga tanila boshladi [7]. 1937-yil 13-sentyabr kuni Maryam Sultonmurodova Germaniyada o‘qigan, “Turkiston” josuslik tashkiloti a’zosi deb, olti oylik norasida qizi Anora bilan qamoqxona azoblariga giriftor etilgan. Jazo muddati tugagach vatanga qaytib, Urganch tumani, Yangibozor fuqarolar yig‘inida hamshira bo‘lib ish boshladi. Biroq uning xursandchiligi yana uzoqqa bormadi. U 1949-yil 30-martda qayta qamoqqa olindi va bu gal ham eski “jinoyatlari” uchun uzoq Krasnoyarsk o‘lkasiga surgun qilingan [8]. Maryam Sultonmurodova 1957-yil 2-avgustda SSSR Oliy Sudi harbiy kollegiyasi tomonidan oqlandi. Biroq u to‘liq oqlanganidan keyin ham ro‘shnolik ko‘rmadi. Ta’qib to‘xtamadi, sevgan sohasi jurnalistika bilan shug‘ullanish u yoqda tursin, uning matbuot sahifalarini o‘qishiga ham to‘sqinlik ko‘rsatildi. Bu haqsizliklar ham Maryamning irodasini sindira olmadi. Maryam Sultonmurodovaning xotiralarida saqlanib qolgan quyidagi jumlar barchamizni junbushga keltiradi. “Taqqdirimga lan’atlar o‘qiyman. Jonim xalqumimga keladi. Biroq yashash

ishtiyiqi, insonlar oldidagi pok nomim bir umrga badnom bo'lib ketmasligi, qachonlardir o'zimni ular oldida oqlab chiqish tuyg'usi meni o'z jonimga qasd qilish to'g'risidagi hayollardan chalg'itadi. Chunki ba'zi bir insonlarning men haqimdagi ig'vo-bo'htonlaridan xalos bo'lish tuyg'usi meni yomon niyatimdan to'xtatib kelmoqda"[9].

Umuman olganda, Maryam Sultonmurodova chinakam davr qahramon ayolidir. Boshiga ne tushishidan qat'iy nazar, taqdir zarbalaridan yiqilsa ham, vataniga sadoqat bilan xizmat qilish ishtiyiqi uni sira ham tark etmaydi. Uning har bir xislati: vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ertangi kunga ishonch bugungi zamonamiz ayollari uchun ibrat maktabidir.

Jafokash ziyoli ayollardan biri Matluba Muhammedova Moskvada tahsil olgan, biroq 1938-yilda aksilinqilobiy she'rlar bitib, uni yashirin yo'llar bilan tarqatib kelgan va o'ziga yaqin bo'lgan sovet xodimlari o'rtasida aksilinqilobiy targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borganlikda ayblanib, panjara ortiga tashlangan.

Matluba Muhammedova 1911-yilda Farg'onada o'qimishli oilada dunyoga kelgan. Uning otasi asli toshkentlik muallim Nurmuhammad Dadamuhammedov taqdir taqozosi bilan Marg'ilonga kelib, jadid maktabi ochgan inson edi. Onasi Marhamatxonim ham savodxon, oqila ayol bo'lgan. Marg'ilonning mashhur jadid muallimi bo'lgan Nurmuhammad Dadamuhammedov farzandlarining tarbiyasiga alohida e'tibor qaratdi. U o'z qizlari Mahbuba va Matlubalarning ham zamonaviy bilimlarni egallashiga yordam berdi. Qizlar dastlab oila davrasida, so'ng yangi maktabda ta'lim olishni boshladi. Matluba Qo'qondagi bolalar uyida, keyin Toshkentdagi xotin-qizlar bilim yurtida tahsil ko'rdi. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori Bahrom Irzayevning ma'lumot bericha, 1927 yilda Matluba Muhamedova Moskvada ochilgan o'zbek ishchi yoshlar fakultetiga o'qishga kirgan. U yerda mashhur shoir Cho'lpon, Botu, Shokir Sulaymonlardan she'riyat sirlarini o'rgandi. Shokirjon Rahimiy, Qayum Ramazon, Abdulhay Tojiyevlar muloqotidan bahramand bo'lgan. Matluba ayniqsa, o'zbek talabalarning ma'rifiy kechalarida Cho'lponning vatanparvarlik mavzusidagi otashin she'rlarini o'qib, o'zi ham shu mavzuda she'rlar yozib, juda mashhur bo'lib ketgan. Cho'lponning 17 yoshli shogirdi Matluba Muhammad xonimning "Mudom Chorning qo'lida ko'p ezilgan millatim", degan misralar bilan boshlanguvchi she'ri o'sha davrda sho'rolar mamlakatini larzaga solgan ekan. Bu she'r Yevropa matbuotida qayta-qayta nashr etilgach, sho'rolar iste'dodli shoira tahsil olayotgan Moskvadagi O'zbek maorif institutini yopgan deyishadi... Darhaqiqat, bir shaxsiyatning isyonli ovozi butun bir mamlakatga zarba bergan. Matluba xonimning "Kurtulush yo'linda" nomli she'rini Sattor Jabbor nemis tiliga tarjima qilgach, ushbu o'tli misralar ham mashhur bo'lib ketadi. "Uning bu shuhrati sho'ro mamlakati chegaralaridan chiqib, Yevropa matbuotigacha borib yetadi. Va bu "mashhurlik" tufayli Moskvada "Комсомольская правда" gazetasida unga qarshi maxsus maqola chop etilgan va natijada u o'qishdan haydalgan. Ko'p o'tmay Matluba ariza yozib, o'ziga qo'yilgan ayblarning tuhmat ekanligini isbotlab, o'qishiga tiklanadi. Bunga bir tomondan O'zbekiston hukumatining aralashuvi, ikkinchi tomondan, Matlubaning Italiya elchixonasiga fuqarolik so'rab murojaat etishi ham sabab bo'lgan [10]. Sovet hukumati O'zbek maorif institutini yopib muammoga yechim topgan edi go'yo. Matlubaxon esa Toshkentga qaytmasdan Moskvadagi musiqa texnikumiga kirib o'qishini davom ettirgan. 1929-yil Leningrad arxitektura instituti talabasi Vosiq Muhammedov bilan tanishadi. 1933-yil Toshkentga kelgan Vosiq Muhammedov Matlubaga uylanadi. Vosiq Muhammedov (1905 – 1938) o'z vaqtida Munavvarqorining "Namuna" maktabi iftixori, Fitratning "Chig'atoy gurungi" ishtirokchisi, "Ko'mak" uyushmasining faollaridan edi. U o'z zamonasining tengsiz yigitlaridan bo'lgan. Vosiq Muhammedov va go'zal Matlubaxon hayotlarining eng shirin damlariga ham Stalin boshliq totalitar tuzum o'zining jirkanch panjasini soldi. 1937-yil 17-dekabr kuni qamoqqa olingan Vosiq Muhammedov 1938-yil 5-oktyabr kuni otib tashlangan. 1938-yil 17-yanvar kuni Toshkent tibbiyot institutining 3-bosqich talabasi Matluba Muhammad ham qamoqqa olinadi. 19-yanvar kuni ilk so'roqda u turmush o'rtog'ining davlat va xalq oldida hech qanday aybi yo'qligini bayon qildi. 1938-yil 21-fevralda ikkinchi so'roqda opasi Mahbuba va uning turmush o'rtog'i, Germaniyada tahsil olib qaytgan kimyogar olim Sattor Jabborning ham aybsizligini ta'kidlagan. Biroq, qo'yilgan birorta ayblovning isbotlanmaganiga qaramay, 1938-yil 17-may kuni Toshkent viloyat sudi tomonidan Matluba Muhammedova 10 yilga qamoqqa hukm etildi. U nohaq jazoni sovuq Sibirning

Usolskiy lagerida o'tadi. 1940-yil 26-fevralda Matluba Muhammedovaning arizasi qayta ko'rib, u oqlanishga erishdi[11]. Vatanga qaytgach, urush yillarida Tibbiyot institutini tugatdi. 1937-yil arxitektura institutida talabalik yillarida qamalib ketgan ukasi Fatxulla urushdan so'ng Vorkutadagi qamoqxonadan og'ir ahvolda qaytadi. Matluba ukasi uchun Namanganga borib yashab, uni davolaydi. Faqat Stalin vafotidan so'nggina ular Toshkentga qaytib keladilar. Matluba Muhammad ko'p yillar xalq salomatligi yo'lida halol mehnat qilib, el-yurt uchun xizmat qiladi.

Xorijda tahsil olib kelgan xotin-qizlarimizdan yana biri Xayrinisa Majidxonova edi. U ham 1937-1938-yillarda olib borilgan qatag'on siyosatining qurboni bo'ldi. Xayrinisa Majidxonova 1905-yilda Toshkentda, ma'rifatparvar oilada dunyoga kelgan. Uning otasi Majidxon aka Toshkentning mashhur Mirobod mahallasidagi turli millatlarga mansub ma'rifatparvar ziyolilar bilan yaqin aloqada bo'lgan. U XX asr boshlarida Markaziy Rossiyaning Moskva, Peterburg kabi shaharlarida bo'lib qaytgan, keyinchalik shu safar chog'larida olgan taassurotlari ta'sirida qizlariga zamonaviy bilim berishga, xorijiy tillarni o'rgatishga harakat qilgan. Toshkentdagi mutaassib ruhoniylar hatto unga "Majid o'ris", "Majid kofir" deb laqab qo'yganlar, qizlari maktabga paranji kiymasdan borganlari uchun qoralaganlar. Xayrinisa mahallasidagi shunday og'ir vaziyatga qaramay, o'qimishli tatar, rus, nemis qizlari bilan do'stona munosabatda bo'lgan. Birinchi o'zbek xotin-qizlar bilim yurtida o'qiyotgan opasi Oyposhsha esa unga yozuv-chizuvni o'rgatgan[12]. So'ngra Miroboddagi yangi maktabda o'qib, rus va nemis tillarini o'rgana boshlagan. Xayrinisa 1922-yilning oxiri – 1923-yilning boshlarida bir guruh o'zbek yigit va qizlari bilan birga Germaniyaga o'qishga yuboriladi. Berlinda bir muncha vaqt davomida nemis tilini o'rgangach, 1924 – 1926-yillarda Maryam Sultonmurodova bilan birga Darmshtat shahridagi o'qituvchilar seminariysida va ayni paytda tibbiyot kurslarida o'qiydi, nemis tili va adabiyotini o'rganadi[13]. 1927-yili, yozgi ta'til vaqtida, Xayrinisa Maryam Sultonmurodova bilan birga Parijga sayohatga boradi. O'z davrida insoniyat madaniyatining poytaxtlaridan biri bo'lgan bu shaharda yashab turgan yurtdoshlari – buxorolik Ahmad Naim va Turkiston Muvaqqat hukumatining sobiq bosh vaziri, muhojir Mustafa Cho'qayevlar bilan uchrashadi. Yurtdoshlari ularni Parijning kino, teatr singari madaniyat o'choqlari bilan tanishtiradilar. Berlinga qaytgach, Xayrinisa bir necha muddat Avstriyaning Vena shahrida ham bo'ladi. Xorijga borib ta'lim olayotgan o'zbek qizlarining jasorati ma'rifat muxlislarining olqishiga sazovor bo'ldi. Xayrinisa Majidxonovaning ismi Turkistonning taraqqiyparvar shoirlari – Cho'lpon, Botu, otasi Majidxon Dumaning maqola va she'rlarida faxr bilan tilga olindi. Jumladan, Botu 1922-yil noyabr oyi boshlarida bir guruh turkistonlik talabalar qatori o'zbek qizi Xayrinisa Majidxonovaning Berlinga o'qishga borishi munosabati bilan yozgan "Kichkina armug'onim" she'rida unga quvonch bilan oq yo'l tilab bunday yozgan edi:

Qora turmush changalidan qutulib,
Erk chechagi taqa olgan kuchli qiz,
Eski odat sanamlarin parchalab,
Erk – tangriga sajda qilgan ruhli qiz.
Yo'ling to'g'ri, ortga boqma, keta ber,
Ilgarilash ashulasin ayta ber![14].

Majidxon aka xorijga o'qishga borgan talabalar orasida qizining ham bo'lishidan cheksiz mamnun bo'lgan. Bunday xushxabarni eshitib suyungan uzoq yaqindagi tanishlaridan ko'plab qutlov so'zlarini, tabrik xatlarini olgan va bundan boshi osmonga yetib, ularga, ayniqsa, shoir Botuga minnatdorchilik bildirib, bunday yozgan: "Ezilgan millatlar, qorong'ulikda qolgan yurtini kelgusida chin bilim bilan yoritmoq uchun bu yil xorijga kelgan talabalar orasida qizim Xayrinisa ham bor edi. Bilim uchun uzoq ellarga birinchi o'zbek qizini yuborish sharafi, shukrlar bo'lsunkim, menga nasib bo'lmish. Hozir men shu munosabat bilan har yerdan qutlash xatlari olmoqdaman... Ularning hammasiga birdan, ayniqsa, qizg'in tuyg'ular bilan qutlagan Moskva va Bokudagi talabalarimizga, Qozon va Orenburgdagi madaniyat va maorif xodimlariga, yosh shoirimiz Botu o'rtoqqa tashakkurimni bildirib, bilim istab dunyoning har tomoniga yoyila turgan yigit va qizlarimizni ko'paysin, - deyman"[15] Germaniyada olti yil davomida ta'lim olgan Xayrinisa 1928-yilda O'zbekistonga qaytib, to 1937-yil 13-sentyabrga qadar kasaba uyushmalari Markaziy Qo'mitasi xodimlari jumhuriyat boshlang'ich va o'rta ta'lim o'qituvchilarining dam olish uyida

shifokor bo‘lib ishlaydi. Uning Yevropa tibbiyotidan olgan bilimlari, mashhur nemis olimlari va vrachlaridan o‘rgangan tajriba va malakalari mehnatkashlarni davolashda unga qo‘l keladi. Xayrinisa shu yillarda onasi Oyposhsha bilan birga 34-uyda turgan. Va shu yerda 1937-yil 13-sentyabrda to‘satdan qamoqqa olingan. Unga 1922 – 1928-yillarda Germaniyada “Ozod Turkiston” nomli aksilinqilobiy-millatchilik tashkilotining a‘zosi bo‘lgan, 1928-yilda shu tashkilotning topshiriqlari bilan SSSRga josus bo‘lib kelgan, SSSRdagi o‘sha tashkilot a‘zolari bilan muloqotda bo‘lgan, degan ayblar qo‘yilgan. O‘sha kuni NKVD davlat xavfsizligi leytenanti G‘aynitdinov uning otasi yashaydigan Katta Mirobod ko‘chasidagi 43-uy 1-xonadonda tintuv o‘tkazib, Xayrinisa bilan birga uning pasporti, Germaniyaning yuz markali tangasi, o‘sha yerdan kelgan 112 ta maktub, nemis tilidagi 4 ta yozishma, 5 ta yon daftar, 8 ta kitobini ham olib ketadi. So‘roqda undan Berlindagi turkistonlik talabalarining Mustafo Cho‘qayev, Ahmad Zaki Validiy va Ahmad Naim ishtirokidagi yig‘ilishlarida nimalar bo‘lganligi, majlislar qachon o‘tkazilganligi kimlar ishtirok qilganliklari so‘raladi. O‘z xalqiga halol xizmat qilishni diliga tukkan Xayrinisa Majidxonova tergovchining barcha savollariga to‘g‘ri va aniq javob beradi. Mustafo Cho‘qayev, Zaki Validiy, Ahmad Naimlar bilan uchrashuvlari, talabalarining o‘zaro to‘planib, uchrashib, suhbatlashib turishlari, yurtdoshlar o‘rtasidagi tabiiy munosabat turmush ehtiyoji ekanini, Turkistondagi ahvol va uning istiqboli talabalarni qiziqtirishi va bu haqda o‘zaro fikr almashishlari ham odatdagi hol ekanini tushuntiradi. Hech narsadan gumonsiramay uchrashuvlarda ishtirok etgan talabalar Majidiy, Vali Qayum, To‘lagan Mo‘min, Sulton Matqul, Sattor Jabbor, Temir Kazbekovlarning nomlarini tilga oladi. Hatto sovet hokimiyatidan norozilik ruhidagi gaplar bo‘lganligini ham yashirib o‘tirmaydi. “Menga, – deydi u bu haqda tergovchiga bergan javobida, – Turkiston talabalarining Mustafo Cho‘qayev va Zaki Validiy ishtirokida o‘tkazgan 4 ta yig‘ilishi ma‘lum: birinchi yig‘ilish taxminan 1924- yoki 1925-yilda Berlin restoranlaridan birida bo‘ldi. Mazkur yig‘inda Mustafo Cho‘qayev ishtirok qildi. Ehtimol Zaki Validiy ham bo‘lgandir. U yerda Turkiston talabalaridan: men, Majidiy, Vali Qayum, To‘lagan Mo‘min, Sulton Matqul, Sattor Jabbor, Kazbekov va boshqa ko‘plar bo‘ladilar. Agar yanglishmasam, bu yig‘in tashabbuskori Vali Qayum edi. Mazkur yig‘in sovetlarga qarshi xarakterda bo‘lib, u yerda nimalar bo‘lganligi va nimalar haqida gapirilganligi hozir aniq esimda yo‘q... Ikkinchisi... Taxminan 1927-yilning yozlarida Maryam Sultonmurodova bilan birga sayohat maqsadida Germaniyadan Fransiyaning Parij shahriga bordik. Borgunga qadar, hozir esimda yo‘q, kim orqalidir biz Mustafo Cho‘qayevning manzilini topdik va Parijga kelgach, mavjud manzil bo‘yicha Cho‘qayevni qidirdik va topib, uning yordami bilan vaqtincha mehmonxonaga joylashdik va u yerda bir oycha yashadik. Mazkur mehmonxonada turgan vaqtimizda Mustafo Cho‘qayev va Ahmad Naim (u bu davrda Parijda yashardi) bir necha bor oldimizga keldi, biz bilan birga yurib, Parij shahrini ko‘rsatdi. Biz ham o‘z navbatida Mustafo Cho‘qayev va Ahmad Naim xonalarida bir necha bor bo‘ldik”. Ayblanuvchi Xayrinisa Majidxonovaning O‘zbekiston MXX arxivida saqlanayotgan 1937-yil 22-dekabr sanali so‘roq bayonnomasida esa yuqoridagi kabi savol-javoblardan so‘ng tergovchining: “Siz o‘zingizga qo‘yilgan o‘sha aybni bo‘yingizga olasizmi? – degan savoliga javoban u o‘ziga qo‘yilgan vatanga xoinlik qilganlik, ayg‘oqchilik va millatchilik tashkilotiga a‘zo bo‘lganlik haqidagi ayblarning asossizligini aytib, uni mutlaqo tan olmaydi va:

“JAVOB: – Men o‘zimga qo‘yilgan Vatanga xoinlik qilganlik, ayg‘oqchilik-millatchilik tashkilotiga aloqador bo‘lganlik haqidagi aybni tan olmayman. Men o‘zimning aybimni faqat quyidagilarda deb bilaman:

a) 1922 – 1928-yillarda Germaniyada o‘qigan vaqtimda aksilinqilobchilar Mustafo Cho‘qayev va Zaki Validiy sovetlarga qarshi ruhdagi nutqlar so‘zlagan Turkiston talabalarining uchta yig‘ilishida qatnashganman;

b) Germaniyada bo‘lganimda 1927-yili dugonam Maryam Sultonmurodova bilan birga Parijga borganmiz. Aksilinqilobchi Mustafo Cho‘qayev va Ahmad Naimlar bilan bir necha bor uchrashganmiz;

d) SSSRga qaytganimdan keyin 1931 – 1932-yillarda O‘zbekistonda O‘rta Osiyo Tibbiyot institutida ilmiy xodim sifatida ishlagan Germaniya fuqarosi bo‘lgan professor Englyand bilan

munosabatda bo‘lganman. Men unga o‘zbek tilidan dars berganim va jonli nemis (so‘zlashuv) tilini o‘rganmoqchi bo‘lganim uchun uning (Englyandning) xonasiga borib turganman.

Qo‘shimcha qilaman: men va Sultonmurodova 1927-yili Fransiyaga Parijni tomosha qilgani borgan edik”. Ayblanuvchining bu so‘zlari qanchalik samimiy aytilgani va uning xatti-harakatida birorta aybning bo‘lmaganiga qaramasdan, tergov va qiynoqlar bir yildan ortiq davom etadi va shu jarayonda uning bo‘yniga qo‘yilgan biror fakt va dalil isbotlanmaydi. Shunga qaramay, SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasining Alekseyev boshchiligidagi sayyor sessiyasi 1938-yil 9-oktyabrda Toshkentda g‘ayriqonuniy ravishda Xayrinisa Majidxonovani O‘zSSR Jinoyat kodeksining 62-64 va 67- moddalari bo‘yicha aybdor hisoblab, oliy jazoga – otuvga hukm qiladi[16]. Hukm shafqatsizlarcha ijro etiladi. Shunday qilib, endigina 32 bahorni qarshilagan, Yevropaning eng rivojlangan mamlakatlaridan birida o‘qib qaytgan birinchi o‘zbek qizlaridan Xayrinisa Majidxonova stalincha totalitar tuzumning begunoh qurboni bo‘ladi, uning oila a‘zolari, ota-onasi ham og‘ir qiyinchiliklarga duchor bo‘ladilar.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, o‘tgan asrning 20-yillarida yetmishga yaqin iste’dodli turkistonlik yoshlarning Germaniyaga o‘qishga yuborilishi o‘sha yillarning ijtimoiy madaniy hayotida ulkan voqea bo‘lgan. Bu vaqtda fan va xo‘jalikning turli sohalarida zamonaviy bilimlar bilan qurollangan yoshlarning yuqori malakali kadrlar bo‘lib qaytishi xalqimiz va mamlakatimizning keyingi taqdiriga katta ta’sir o‘tkazishi mumkin edi. Afsuski, O‘zbekistonning mustamlaka tarzida qolishidan manfaatdor bo‘lgan sovet davlati dastlab bu talabalarning o‘qishni bitirmay turib qaytishlarini talab etdi, 1937-yilning qonli voqealari boshlanishi bilan ularni Germaniyaning josuslari va aksilinqilobchi-millatchi unsurlar sifatida mahv etib tashladi. Stalin vafotidan so‘ng bir qator ziyolilarning nomi oqlangan bo‘lsada, asil oqlanish respublikamiz mustaqillikni qo‘lga kiritgandan so‘ng amalga oshirildi deb ayta olamiz, istiqloq sharofati bilan ularning nomlarini oqlash, ular to‘g‘risida erkin gapirish va ilmiy ishlar olib borish keng miqyosda yo‘lga qo‘yildi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2023-yil 22-dekabr kuni o‘tkazilgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishi. <https://president.uz/uz/lists/view/6941> (Expanded meeting of the Republican Council on Spirituality and Enlightenment chaired by President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev on December 22, 2023. <https://president.uz/uz/lists/view/6941>)
2. Турдиев Шерали. Улар Германияда ўқиган эдилар. -Т.: 2006. - 8 б. (Turdiev Sherali. They studied in Germany. - T.: 2006. - 8 p.)
3. Турдиев Шерали. Улар Германияда ўқиган эдилар. -Т.: 2006. – 9 б. (Turdiev Sherali. They studied in Germany. - T.: 2006. – 9 p.)
4. Sattor Jabborning Ertoy nomi bilan “Turkiston” gazetasining 1924-yil 2-sentabr soni 2-3-sahifa. (The issue of the newspaper “Turkestan” dated September 2, 1924 under the title Sattor Jabbar Ertoy p. 2-3)
5. Sattor Jabborning Ertoy nomi bilan “Turkiston” gazetasining 1924-yil 2-sentabr soni 2-3-sahifa. (The issue of the newspaper “Turkestan” dated September 2, 1924 under the title “Sattor Jabbar Ertoy” p. 2-3)
6. Irzayev B. Qamoq, surgun, ruhiy va ma’naviy ta’qiblarda o‘tgan sahro qizi. “Milliy tiklanish” demokratik partiyasining ijtimoiy-siyosiy gazetasi, 9-son 2023-yil. “Milliy tiklanish” gazetasi 12-sahifa. (Irzaev B. A girl from the desert who went through prisons, exile, spiritual and spiritual persecution. Socio-political newspaper of the Democratic Party Milliy tiklanish, issue 9, 2023. “Milliy tiklanish” Newspaper Page 12.)
7. Yo‘ldoshev Q. O‘zgarishlar doimiyligi // Sharq yulduzi, №3, 2013. (Yuldashev K. The persistence of change // Star of the East, No. 3, 2013.)

8. Irzayev B. Xorijda o‘qigan o‘zbek jadid ayollarining “aybi” nima edi? // <https://oyina.uz/uz/article/1468> (Irzaev B. What was the “fault” of Uzbek Jadid women who received education abroad? // <https://oyina.uz/uz/article/1468>)
9. Eshjonova Sh., Rahmonova Y., Hasanov B., Chiroq ko‘targan ayol. – T.: 2022. – 72-b.(Eshzhonova Sh., Rakhmonova Y., Hasanov B. A woman with a flashlight. Vol.: 2022. 72 p.)
10. Irzayev B. Josuslikda aybladilar. Bu tuhmat! – Maryam Sutonmurodovaning surgundagi maktublari. (Irzaev B. Was accused of espionage. This is slander! – Letters from Maria Sutonmurodova in exile.)
11. Irzayev B. Nega sen qo‘zg‘almaysan, Millat?! – Sho‘rolar mamlakatini larzaga slogan opa-singil Muhammedovalar // <https://oyina.uz> (Irzaev B. Why don't you move, nation?! – The Muhammedov Sisters, shaking the country of the Shurals // <https://oyina.uz>)
12. Ирзаев Б. Хорижда ўқиган ўзбек жадид аёлларининг “айби” нима эди? // Янги Ўзбекистон, 2023-йил 8-март. № 46. Б.6.(Irzaev B. What was the “fault” of Uzbek Jadid women who received education abroad? // New Uzbekistan, March 8, 2023. No. 46. B.6.)
13. <https://kun.uz/uz/news/2022/05/03/biri-otilgan-ikkinchisi-surgun-qilingan-germaniyada-oqigani-uchun-qatagon-qilingan-ozbek-ayollari>
14. Турдиев Ш. Улар Германияда ўқиган эдилар. -Т.: 2006. -117 б. (Turdiev Sh. They studied in Germany. - T.: 2006. -117 p.)
15. Ирзаев Б. Ўзбек ёшлари ва хорижий таълим. –Тошкент: Akademnashr, 2018. -208 б. (Irzaev B. Uzbek youth and foreign education. Tashkent: Akademnashr Publ., 2018. 208 P.)
16. Қор кўйнида лолалар (қатағон килинган аёллар хақида очерклар). //Масъул муҳаррир: Б.Шарипов/. -Тошкент, “Академия”, 2001 й. -213 б. (Tulips in the snow (essays about oppressed women). // Editor in charge: B.Sharipov/. - Tashkent, "Academy", 2001. -213 B)

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 6 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 6

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 6

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000